



## XALQ PEDAGOGIKASIDA OTA-ONA VA FARZANDLARNING O‘ZARO MUNOSABATLARI

*Turakulova Feruza Aminovna*  
*Qo‘qon davlat universiteti*  
*Pedagogika kafedrası v.b.dotsenti*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada xalq pedagogikasida ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-pedagogik mohiyati tahlil qilingan. Oilaviy tarbiyaning tarixiy ildizlari, zamonaviy talqinlari hamda shaxs kamolotidagi o‘rni yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalq pedagogikasi, oilaviy tarbiya, ota-ona, farzand, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy muhit.

**Аннотация:** В статье рассматриваются социально-педагогические аспекты взаимоотношений родителей и детей в народной педагогике. Особое внимание уделяется семейному воспитанию и его роли в развитии личности.

**Ключевые слова:** народная педагогика, семья, родители, дети, воспитание, ценности.

**Abstract:** This article explores socio-pedagogical aspects of parent-child relationships in folk pedagogy, focusing on family upbringing and its role in personality development.

**Keywords:** folk pedagogy, family, parenting, upbringing, values, socialization.

Xalq pedagogikasi insoniyatning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi asosida shakllangan o‘ziga xos tarbiya tizimi bo‘lib, unda inson kamoloti masalasi markaziy o‘rinni egallaydi. Ushbu tizimning asosiy tayanchi oila hisoblanadi, chunki inson shaxs sifatida aynan oilaviy muhitda shakllanadi. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar esa ushbu jarayonning ichki mexanizmini tashkil etadi. Mazkur munosabatlar nafaqat maishiy yoki hissiy aloqa, balki chuqur pedagogik mazmunga ega bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisadir.

Muhit farzandning kelajakdagi hayotiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Agar oila ichida o‘zaro hurmat, samimiylik va ishonch ustuvor bo‘lsa, bunday sharoitda ulg‘aygan farzand ijtimoiy jihatdan faol, mustaqil fikrlovchi va mas‘uliyatli shaxs sifatida shakllanadi. Aksincha, e‘tiborsizlik yoki ziddiyatli muhit bolaning ruhiy va axloqiy rivojiga salbiy ta‘sir etishi mumkin. Shu sababli xalq pedagogikasida oilaviy muhitni sog‘lom tashkil etish muhim shart sifatida qaraladi.

Ota-ona tarbiya jarayonining bevosita subyekti sifatida namoyon bo‘ladi. Ular tomonidan qo‘llaniladigan usullar ko‘pincha rasmiy qoidalarga emas, balki hayotiy tajriba va an‘analarga asoslanadi. Bu esa tarbiya jarayonini tabiiy va samimiy qiladi. Farzand ota-onaning nafaqat aytgan so‘zidan, balki kundalik xatti-harakatlaridan ham

ta’sirlanadi. Shu bois ota-onaning shaxsiy namunasi eng samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Ota-onaga munosabati ham ikki tomonlama jarayon sifatida shakllanadi. Agar ota-ona farzandga hurmat va e’tibor bilan yondashsa, farzand ham ularga nisbatan xuddi shunday munosabatni namoyon etadi. Bu o‘zaro bog‘liqlik xalq pedagogikasida alohida qadrlanadi. Farzandning ota-onaga sadoqati, ularning so‘zini qadrlashi va xizmatini qilishga intilishi uning ma’naviy yetukligini ko‘rsatadi.

Xalq pedagogikasida tarbiya jarayoni keskin nazorat yoki majburlashga emas, balki tushuntirish va ongli anglashga asoslanadi. Farzandga biror xatti-harakatning mohiyati izohlanadi, uning oqibatlarini tushuntiriladi. Natijada bola faqat buyruqni bajaruvchi emas, balki mustaqil fikr yurituvchi shaxsga aylanadi. Bu yondashuv zamonaviy pedagogika talablariga ham mos keladi. Shuningdek, xalq pedagogikasida axloqiy tarbiya ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Halollik, rostgo‘ylik, sabr-toqat, mehr-oqibat kabi fazilatlar oilada shakllantiriladi. Bu jarayonda ota-onaning nutqi, muomalasi va umumiy madaniyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Farzand ana shu muhitda ijtimoiy qoidalarga moslashadi va o‘z xulq-atvorini shakllantiradi.

Zamonaviy jamiyatda esa ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarga yangi omillar ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining keng tarqalishi, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bolalarning dunyoqarashini o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda ota-onaning vazifasi faqat nazorat qilish emas, balki yo‘naltirish va tushuntirishdan iborat bo‘lib qolmoqda. Farzand bilan ochiq muloqot qilish, uning qiziqishlarini tushunish va qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalq pedagogikasida oila va oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar alohida qadriyat sifatida e’tirof etiladi. Oila va oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni qadriyat sifatida e’tirof etilishi yurtimizgagina xos bo‘lgan ma’lum qonuniyatlarning borligini isbotlaydi. Masalan, Sharq mutafakkirlari Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Xojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat tadqiqotlarida oila muammosi, oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasiga xalqning mahalliy shart-sharoitlari nuqtai nazaridan talqin qilingan. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bo‘laga ilm-u adab o‘rgatish uchun muallim chaqirishdir. O‘g‘ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo‘ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir”. Bu fikrlar orqali qattiqqo‘llik va shafqatning me’yorda bo‘lishi aytiladi. Me’yor arabcha so‘zdan olingan va o‘lchov, qoida degan ma’nolarni anglatadi. Demak me’yor xulq-atvor, taom, til, faoliyatlarni o‘z chegarasida bo‘lishni, haddan oshmaslikni anglatadi:

- Erta borsang, et pishar, Kechga qolsang, bet pishar.
- Besh panjangni og‘zingga tiqma.
- Behuda kuchanish belni sindirar.
- Behuda harakat beburd qilar.

Oila doirasida shakllangan munosabatlar keyinchalik jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarga ham ta’sir qiladi. Oilada hurmatni o‘rgangan bola jamiyatda ham boshqalarni qadrlaydi. Mehr ko‘rgan bola esa boshqalarga mehr ulashadi. Shu sababli oilaviy tarbiya jamiyatning umumiy ma’naviy darajasini belgilovchi muhim omil sifatida qaraladi. Xalq pedagogikasida bu qarashlar maqollarda o‘z aksini topgan:

- Oila ahil bo'lsa,  
Omad o‘z oyog'i bilan kelar.
- Suvsiz hayot bo'lmas,  
Vafosiz — oila.
- Oila tinch — yurt tinch.
- Oila — qo‘sh ustunli ayvon.
- Ahil oila — baxtli,  
Noahil oila — vaqtli.
- Inoq oilada beshik bo‘shamas.
- Egachi-singil inoqligi —  
Oilaning quvnoqligi.

O‘zbek oilalarining shunday muhim jihati mavjudki, bu jihat o‘zbek xalq pedagogikasida aks etadi, ya’ni oiladagi tarbiya faqat bolaga qaratilgan jarayon bo‘lmay, balki ota-ona ham o‘zini doimiy ravishda takomillashtirib borishini talab etadi. Xalq pedagogikasida xalq tajribasi aynan tarbiya beruvchi ota-onani yetuk bo‘lishini talab etadi, chunki, bizning momo-buvilarimiz shunday mukammallikka ega edilar. Masalan, To‘maris momomiz, qanday qat’iyatli onabo‘lgan, yoki Bibixonim momomiz, bizga buyuk astronomni tarbiyalab berganlar.

Xalq pedagogikasining diniy manbalarida ham ayollarga juda yuqori baho beriladi. Diniy manbalarga ko‘ra, onalar quyidagi uch toifaga bo‘linadilar:

1-toifa: Onadir

Bolasiga hadya olsa, bolam senga hadyani men oldim deb, bolasini o‘ziga bog‘laydi.

2-toifa: Vafoli onadir

Bolam senga hadya oldim, lekin otang sog‘ bo‘lsin, senga ishlab sovg‘a olishimga sababchi bo‘ldi deb, bolasini ham otasiga, ham o‘ziga bog‘laydi.

3-toifa: Ham vafoli, ham o‘qituvchi, xam din o‘rgatuvchi muslimadir

Bolam senga hadya olgan bo‘lsamda, pulini otang to‘lagan bo‘lsada, aslida senga olishligimni Alloh xohladi va nasib qildi, Allohga minnatdorchilik bildirgin deb bolasini Allohga, dinga o‘rgatadi.

Xalq pedagogikasining xalq tajribasida otalarimiz namunalari ham alohida o‘rin tutadi. Bizning ota-bobolarimizni yoshliklarini farzandlarimizga o‘rnak qilib ko‘rsatishimiz, ular haqida ko‘proq gapirib berishimiz bugungi kun uchun o‘z dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, bobomiz Amir Temurning buyuk imperiya tuzganligi, tarqoq xalqni bir maqsad yo‘lida birlashtirgani yosh avlodni jasur, mard, vatanparvar bo‘lishga undaydi;

- Imom Al-Buhoriy 9 yoshdan hadis yodlashni boshlaganligi, Zahiriddin Muhammad Bobur 12 yoshda yurt boshqarganligi, Jaloliddin Manguberdi 21-22 yoshida mo‘g‘illarga qarshi qahramonlarcha kurashganlari ularni ilmga, vatanga bo‘lgan

sadoqatliklaridan dalolatdir. Ming afsuslar bilan auyitish kerak, bugungi yosh avlod tarbiyasiga nima bo`ldi. Yurtimizda yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishlari uchun hukumatimiz va Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga berilayotgan e’tiborga qaramay, o‘smir-yoshlar o‘rtasida giyohvandlik, jinoyatchilik, tartibbuzarlik kabi mentalitetimizga, etnik xususiyatlarimizga xos bo‘lmagan illatlarning ko‘payishi kuzatilmoqda. Bugungi kundagi oilalarning zamonaviylashib borayotgani ham oilaviy munosabatlarga putur yetkazmoqda, bularning sababi yoshlar o‘rtasida qurilgan oilalarda madaniyat, ma’naviyat, axloq-odob masalalarining, xulq madaniyatini yetishmasligidadir. Agar oilada samimiylik, bir-biriga bo‘lgan mehr va hurmat yuqori bo‘lsa, farzandning o‘sib ulg‘ayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Alisher Navoiy tarbiyaning yana bir ko‘rinishi ota-onani hurmat qilish ekanligini farzandlarga uqtiradi:

Boshni fido ayla ato qoshig’a,  
Jismni qil sadqa ano boshig’a.  
Tun-kuningg’a aylagali nur fosh,  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Alisher Navoiy ta’biri bilan aytganda, ota-onalar bu dunyodagi eng mo’tabar zotlardir, ularni haqqini hech bir farzand ado etolmas ekan, bir rivoyatda onasini yelkasida ko’tarib, ka’bani aylantirib ziyoratini mukammal qilgan yigit alloh taolodan so’rabdi, men onam oldidagi vazifamni ado etoldimi desa, alloh taolo “Yoq”-deb javo beribdi. “Sen onangni bir kechada turib qaragan kunini ado etding”, deb javob qilgan ekan. Rivoyat bilan Alisher Navoiy fikrlaridagi uyg’unlik yaqqol aks etgan.

Oila-ijtimoiy institutlarning eng qadimgisi bo‘lib, insoniyat boshidan kechirgan barcha tarixiy davrlarning murakkab bo‘lishiga qaramay, o‘z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog’ omon saqlanib qolgan maskandir. Shuning uchun ham xalq pedagogikasida oila va farzandlar tarbiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq maqollari ana shu xususiyatlarga ko‘ra aytilgan:

- Ayolning sarishtasi  
Ro'zg'orning farishtasi.
- Bol — shirin, boldan — bola shirin.
- Bola bo'lsa, beshik topilar.
- Bolali uy — bozor,  
Bolasiz uy — mozor.
- Bolali uy — jannat,  
Bolasiz uy — minnat.
- Bolali uy — xandon,  
Bolasiz uy — zindon.

Xalq pedagogikasida ota-ona o‘z farzandini sevishi, erkalashi, ardoqlashi zarurligi, lekin me’yoridan orttirib taltaytirmaslik kerakligi, aks holda bu yomon oqibatlariga olib kelishiga urg`u beriladi:

- Bola bo'lsa, sho'x bo'lsin,  
Sho'x bo'lmasa, yo'q bo'lsin.
- Bolang yomon bo'lsa ham, omon bo'lsin.
- Gung bolaning gapini

Kar onasi tushunar.

- Men kuyarman bolamga,  
Bolam kuyar bolasiga.
- Ona — mehribon, ota — g'amg'uzor.
- Onaga o'xshab qiz tug'ilmas,  
Otaga o'xshab — o'g'il.

Xulosa qilib aytganda, ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar xalq pedagogikasining asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Bu munosabatlar orqali insonning shaxsiyati shakllanadi, uning hayotiy pozitsiyasi belgilanadi. Zamonaviy sharoitda ushbu an'anaviy qarashlarni yangicha yondashuvlar bilan boyitish va ularni amaliyotga joriy etish muhim vazifa hisoblanadi. Chunki barkamol avlodni tarbiyalash har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fan nom diss. – T.: 2005. – 15 b.
2. Ibaydullayeva U.R. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori diss. - T.: 2022. – 5 b
3. Xaydarov C. (2025). Oilalarda farzand tarbiyasiga ruhiy ta'sir o'tkazish. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.